

UDK: 377:37.013

FARG‘ONA SHAHAR 2-SON TEXNIKUMIDA ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH TAJRIBASI

Maxkamova Nilufar Tursunaliyevna

Farg‘ona shahar 2-son texnikumi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Farg‘ona shahar 2-son texnikumida yoshlarni zamonaviy kasb-hunarga o‘rgatish, dual ta’lim tizimini joriy etish, pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish hamda ta’lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yoritilgan. Shuningdek, texnikum faoliyatining rivojlanish bosqichlari va ta’lim jarayonini samarali tashkil etish bo‘yicha tajribalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kasb-hunar ta’limi, texnikum ta’limi, dual ta’lim, pedagogik texnologiyalar, amaliy ta’lim, pedagog malakasi, ta’lim samaradorligi.

Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi yoshlarni zamonaviy bilim va kasb-hunar egasi bo‘lgan, raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tayyorlashdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan kasb-hunar ta’limi muassasalarining faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Farg‘ona shahar 2-son texnikumi ham yoshlarni kasbga yo‘naltirish, ularga nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qilayotgan zamonaviy ta’lim muassasalaridan biri hisoblanadi. Texnikumda ta’lim jarayoni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilib, nazariya va amaliyot uyg‘unligi ta’minlanmoqda.

Farg‘ona shahar 2-son texnikumi dastlab 2019-yilda ko‘p tarmoqli texnikum sifatida tashkil etilgan bo‘lib, shu yildan boshlab o‘quvchilar qabul qilina boshlagan. Dastlab texnikumda kompyuter injiniringi, mehmonxona xo‘jaligi hamda buxgalteriya yo‘nalishlari faoliyat yuritgan.

2021-yilda ta’lim muassasasi nomi 2-son politexnikum deb o‘zgartirilib, ta’lim jarayoniga dual ta’lim tizimi joriy etildi. Mazkur tizim o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish imkonini yaratdi. Shu bilan birga fakultetlar soni kengaytirilib, sport faoliyati yo‘nalishi ham tashkil etildi.

2022-yildan boshlab texnikumda sirtqi ta’lim yo‘nalishlari yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi yo‘nalishi ochilib, ushbu sohada ta’lim olish istagida bo‘lgan xotin-qizlar uchun imkoniyat yaratildi.

2024-yildan boshlab dual kunduzgi ta’lim shaklida maktabgacha ta’lim tashkiloti uslubchisi hamda tarbiyachi yo‘nalishlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bu tizim talabalarga o‘qish bilan bir qatorda ishlab tajriba orttirish imkoniyatini berdi.

2025-yilda ta'lim muassasasi nomi yana 2-son texnikum deb o'zgartirildi. Shu yildan boshlab 9-sinf va 11-sinf bitiruvchilari qabul qilinib, 234 nafar o'quvchi qamrab olindi. Bu esa o'quvchilarga kelajakda oliy ta'lim muassasalariga suhbat asosida o'qishga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Texnikum direktori J.Q.Mirzajonov tashabbusi bilan 2026-yilda dual maktabgacha ta'lim yo'nalishi doirasida rus tili fakulteti ochildi. 26-yanvar sanasidan boshlab ushbu yo'nalish talabalari o'qishni boshladilar.

Texnikumda faoliyat yuritayotgan pedagoglar tajribali va malakali mutaxassislardan iborat bo'lib, ular ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanadilar. Talabalar amaliyot o'tayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga pedagoglar tashrif buyurib, amaliy mashg'ulotlarni bevosita ish joylarida tashkil etish orqali tajriba almashish jarayonini yo'lga qo'yganlar.

Shuningdek, pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish maqsadida xorijiy tillarni o'rganish jarayoni ham tashkil etilgan. Hozirgi kunda o'qituvchilar darsdan tashqari vaqtlarida turk tili o'qituvchisi ishtirokida til o'rganish mashg'ulotlarida qatnashib kelmoqdalar.

Bundan tashqari, pedagoglar fanlar kesimida o'tkaziladigan attestatsiya jarayonlariga ham muntazam tayyorgarlik ko'rmoqdalar. Ular metodik qo'llanmalar, test savollari va ilmiy-uslubiy materiallarni o'rganish orqali o'z kasbiy kompetensiyalarini oshirib bormoqdalar.

Texnikumda har oy seminar-treninglar tashkil etilib, unda pedagoglar zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion g'oyalar hamda samarali o'qitish metodlari bilan o'zaro tajriba almashadilar. Shuningdek, pedagoglar bir-birlarining dars mashg'ulotlarida qatnashib, dars jarayonlarini tahlil qilish va takomillashtirishga qaratilgan metodik faoliyat olib boradilar.

Xulosa

Farg'ona shahar 2-son texnikumida ta'lim jarayonini tashkil etish tajribasi shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, dual ta'lim tizimini rivojlantirish hamda pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish yoshlarni raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnikumda yaratilgan zamonaviy sharoitlar, amaliy mashg'ulotlarning samarali tashkil etilishi hamda ijtimoiy-ma'naviy tarbiya ishlarining tizimli yo'lga qo'yilgani o'quvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
2. O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni.
3. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti bo'yicha ilmiy-uslubiy manbalar.
4. Kasb-hunar ta'limi tizimiga oid metodik qo'llanmalar.